

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK ADABIYOTI”

fanining o‘quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta‘lim yo‘nalishi:	60230700 – Amaliy filologiya

Toshkent-2023

Semestr	Fan/modul kodi 302 O'A L3 16	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024								
				ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
						Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	Laboratoriya		
5	Alisher Navoiy hayoti va ijodi	4	4	60	20	12	28	0	60	120		
	Jami:	4	4	60	20	12	28	0	60	120		

I. FANNING MAZMUNI

“O‘zbek adabiyoti” fani ixtisoslik fanlari o‘quv blokiga kiritilgan bo‘lib, talabalarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq boy adabiy va ma‘naviy meros bilan tanishtirish, o‘zib kelayotgan avlodni sog‘lom e‘tiqod va yuksak asloq sohibi bo‘lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash vazifalarini bajaradi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq boy adabiy va ma‘naviy meros bilan talabalarni tanishtirish, o‘zib kelayotgan avlodni sog‘lom e‘tiqod va yuksak asloq sohibi bo‘lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma‘naviy xazinani tom ma‘noda qadrlashga o‘rgatish orqali ularni yuksak ma‘naviyatli va keng ma‘rifat sohibi etib tarbiyalashdir.

Fanning vazifasi esa, badiiy adabiyot bilan bog‘liq tushuncha va tamoyillari, asarlarning mazmun-mohiyati, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, badiiy asarlar tili, o‘ziga xos jihatlari, asarlarning o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta‘sirini bilan bog‘liq masalalarni bilish malakasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

2. FANNI O‘QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

- “O‘zbek adabiyoti” fani bo‘yicha talaba o‘zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o‘rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini o‘rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari to‘g‘risida *tasavvurga ega bo‘lishi*;

- o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o‘ziga xos jihatlari, janrlar poetikasi, she‘r sistemasining umumiy qonuniyatlari, badiiy san‘atlarning hosil bo‘lish yo‘llari va mumtoz she‘riyatda qo‘llanish usullari, mumtoz she‘riyatda qo‘fiya va radifning tuzilishi

o‘rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug‘atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar ma‘nosini tushunish, o‘zbek adabiyoti tarixida qo‘llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy va adabiy-estetik omillari xususiyatlarini bilishi va o‘zbek adabiyotiga xos yangi janrlar va ularning taraqqiyot tamoyillari, she‘riyatda vazn, poetik janrlar va obrazlarning yangilanish qonuniyatlari, taraqqiyot omillarini tahlil qila olishni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

- Alisher Navoiyning fenomeni, shaxsiyati, hayot yo‘li, tafakkur dahosi, o‘zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo‘shgan hissi, ilmiy va ijodiy faoliyati, o‘zbek davlatchiligi va ma‘naviyati tarixida tutgan o‘rni haqida tavsifga ega bo‘lishi;

- Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, adabiy merosining vazn xususiyatlari, janrlar poetikasi, xamsachilik an‘anasi, tatabbu, nazira, tavr, muxtara g‘azallarning o‘ziga xos jihatlari, Navoiy ijodida qo‘llanilgan qo‘fiya unsurlari, badiiy san‘atlarning hosil bo‘lish yo‘llari, majoz tariqida yozilgan she‘rlarda qo‘llanilgan ilmiy, diniy-asotiriy va tasavvufiy istilohlarni sharhlash, badiiy nasr stilistikasi, ramz, timsol va obrazlar mohiyatini anglash, Navoiy asarlari tili, forsiy merosining badiiyati, ilmiy-filologik, tarixiy, irfoni, diniy-falsafiy asarlarining o‘ziga xos jihatlari, ma‘no qatlamlari, o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta‘sirini bilan bog‘liq masalalarni *bilishi va ulardan foydalana olishi* talab etiladi.

3. O‘QUV FANI O‘QITILISHI BO‘YICHA USLUBIY KO‘RSATMALAR

- ma‘ruzalar;
 - interfaol keys-stadilar;
 - amaliy mashg‘ulotlar (aqiy hujum, tezkor savol-javoblar);
 - guruhlarda ishlash;
 - taqdimotlar qilish;
 - individual loyihalar;
- jamao bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishini muvaffaqiyatli topshirish.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimni baholash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida og'zaki yoki yozma shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki yoki yozma shaklda o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 marta gacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarining o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarining bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho;**

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

5-SEMESTR

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
XX asr boshlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot.			
1	Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi. Hayotiga doir muhim ma'lumotlar	Navoiyshunoslik tarixidan. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari. <i>Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati</i> . Shoir hayoti va ijodining manbalari. Zamondoshlarining asarlarida, XVI-XIX asrlardagi tazkira, lug'at, tarixiy va badiiy asarlardagi ma'lumotlar.	2
2	Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari	Devonlari. Iлк devon. Oqquyunli muxlislar devoni. "Badoyi" ul-bidoya" va "Navodir un-nihoy" devonlari. "Badoyi" ul-bidoya" debochasida devon tartib berish masalalari. "Xazoyin ul-maoniy" - lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.	2

		Debochada kulliyotning tuzilishi va devonlarning yaratilishi bilan bog'liq masalalar. Kulliyotdagi devontar tartibi va ulaming o'ziga xos xususiyatlari. «Devoni Foniyo'ning tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatlari. Devondagi g'azallar talqini.	
3	Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. "Hayrat ul-abror".	Xamsachilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy "Xamsa"lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy beshligi birinchi turkiy "Xamsa" sifatida. "Hayrat ul-abror" mundarijaviy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, syujet tartibi va kompozitsiyasi. Maqolat va hikoyatlar tahlili. Falsafiy va tasavvufiy talqinlar.	2
4	"Farhod va Shirin" dostonining timsollar olami. "Layli va Majnun" dostonida muallif badiiy niyatining ifodalanishi	"Farhod va Shirin" dostonining muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo'ligha kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar. Dostondagi ramziy timsollar. Doston badiiyati. «Layli va Majnun» – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Dostonning yaratilish tarixi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Majnun – ilohiy ishq yo'lidagi majzub timsoli. Dostondagi boshqa timsollar. Dostonning badiiy xususiyatlari.	2
5	"Sab'ai sayyor" dostonining tarkibiy tuzilishi, hikoyatlar tahlili.	"Sab'ai sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.	2
6	"Saddi Iskandariy" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	"Saddi Iskandariy" – falsafiy-talimiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli.	2
7	Alisher Navoiyning ilmiy merosi.	<i>Adabiyotshunoslik asarlari</i> . "Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar. "Majolis un-nafois" - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiy – tilshunos. "Muhokamat ul-lug'atayn"da ikki til muhozasasi.	2

		<i>Tarixiy asarlari.</i> "Tarixi muluki ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida. <i>Yodnomalar</i> – memuar janrining yuksak namunasi sifatida. "Xamsat ul-mutahayyirin" asarining mundariyasi. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari.	
8	Ma'rifiy-ta'limiy, diniy va tasavvufiy asarlari.	"Arba'in" va hadislarini she'rga solish an'anasi. "Nazm ul-javohir" asarida Hazrat Ali hikmatlariga munosabat. Asardagi ruboiylar talqini. "Siroj ul-muslimin" da ta'limiy masalalar. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida tasavvuf masalalari. "Vaqfiya" asarida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq masalalar. "Munajat" da tavba-tazarru va Haqqa bo'lgan ishq ohanglari. "Munshaot" – turkiy epistolyar janrining nodir namunasi. « <i>Mahbub ul-qulub</i> » asari. Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari. <i>Navoiyga nisbat beriluvchi asarlar.</i> "Sab'at abhur" va "Risolai tir andoxtan" asarlari.	2
9	Alisher Navoiy aruzi. Ruboiy vaznlari.	Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda aruz tizimi. Navoiy devonlaridagi bahrlar miqdori. Muxlislar tartib bergan devonlarning vazn xususiyatlari. "Badoye' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarida qo'llanilgan bahrlar. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining vazn xususiyatlari. Kulliyotning vazn ko'rsatkichlari. <i>Ruboiy vaznlari.</i> Axbra va axram shajarasi. Axbra shajarasiga mansub 12 vazn va ularning Navoiy ruboiylarida tutgan o'rni. Axbra shajarasiga xos xususiyatlar. "Mezon ul-avzon" da aruz masalalari.	2
10	Badiiy san'atlar va ularning Navoiy she'riyatidagi o'rni.	Lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar. Badiiy san'atlarning Navoiy lirikasidagi o'rni. "Xamsa" dostonlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar.	2
		Jami:	20 s.

2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Navoiy hayoti va ijodi zamondoshlari xotirasida (Xondamir asarlari misolida)	Navoiyshunoslik tarixidan. XX asr o'zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari.	2
2	"Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti	"Xazoyin ul-maoniy" – lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratilish tarixi, tarkibiy tuzilishi.	2
3	Lirik asarlarni sharhlash mezonlari. Hamd va na't g'azallar sharhi	A. Rustamov va N. Komilov sharhlari qiyosiy tahlili asosidagi tadqiq.	2
4	"Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolat va hikoyatlar	"Hayrat ul-abror" mundarijaviy doston sifatida. Dostonning tarkibiy tuzilishi, syujet tartibi va kompozitsiyasi. Maqolat va hikoyatlar tahlili.	2
5	"Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	Navoiyshunoslik tarixidan. XX asr o'zbek navoiyshunosligi. Alisher Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida o'rganilishi. Navoiyshunoslik muammolari.	2
6	"Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha tavsifi	"Farhod va Shirin" dostonining muxtasar mundariyasi va timsollar olami. Doston badiiyati.	2
7	"Farhod va Shirin" dostonida yetakchi timsollar tizimi.	"Farhod va Shirin" dostonining muxtasar mundariyasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy ishq yo'liga kirgan soliki majzub timsoli. Shirin – ilohiy mazhar.	2
8	"Layli va Majnun" ning tasavvufiy talqini	« <i>Layli va Majnun</i> » – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Asardagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundariyasi, timsollar olami.	2
9	"Sab'at sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili.	"Sab'at sayyor" dostonidagi hikoyatlar tahlili. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.	2
10	"Saddi Iskandariy" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	Tarkibiy tuzilishi. Mazmun mohiyati.	2
11	"Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar voqeasi va keltirilgan hikoyatlar mutanosibligi.	Dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Tarkibiy tuzilishi. Dostonda adolat timsoli.	2
12	"Lison ut-tayr" dagi vodiylar tavsifi va hikoyatlar. "Shayx San'on hikoyati"	Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat.	2

13	"Lison ut-tayr" dostonida tasavvuf masalalari	Doston tarkibidagi hikoyatlar. Dostonda tasavvuf falsafasi va axloqiga munosabat. Dostondagi vodiylar tavsifi.	2
14	"Mahjub ul-qulub" – axloqiy-talimiy asar	«Mahjub ul-qulub» asari. Tarkibiy tuzilishi: ijtimoiy tabaqalar, axloqiy masalalar, pand-hikmatlar. Asarning badiiy xususiyatlari.	2
Jami:			28 s.

3. Seminar mashg'ulotlari 5-semestr

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Navoiyning adabiyotshunoslik va tilshunoslik asarlari.	"Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar. "Majolis un-nafois" - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi.	2
2	Navoiyning tarixiy asarlari	"Tarixi muluki ajam" va "Tarixi anbiyo va hukamo" – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida.	2
3	Yodnomalar – memuar janrining yuksak namunasi sifatida.	"Holoti Sayyid Hasan Ardashar" va "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlarini manob janri talablari asosida sharhlash.	2
4	"Nasoyim ul-muhabbat"dagi ibratli hikoyatlar sharhi.	Hikoyatlar mazmunini sharhlab o'qitish	2
5	"Vaqfiya" asarini sharhlash asosida shoir biografiasiga oid muhim ma'lumotlarni tiklash.	Asar Navoiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, homiylik faoliyati tahlili asosida o'rganiladi.	2
6	XX asrdagi navoiyshunoslik	Badiiy adabiyotda yoritilishi, ilmiy o'rganilishi	2
Jami:			12 s.

4. Mustaqil ta'lim ishlari

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'u lot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Navoiyning lirik asarlari talqini				
1	Xondamimning "Makorim ul-axloq" asarida Navoiy shaxsiyati va ijtimoiy faoliyatiga doir qarashlar.	ma'ruza	"Makorim ul-axloq" asarini mustaqil mutolaa etish.	2

2	Navoiy g'azallarining mavzu bo'yicha har bir turiga g'azal yodlash va ularni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish.	seminar	"Navoiy g'azaliyoti talqinlari" kitobi ustida ishlash.	2
2-bob (modul). "Xamsa" dostonlari mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari				
3	"Hayrat ul-abror" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Dostonni to'liq mustaqil o'rganish.	2
4	"Farhod va Shirin" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
5	"Layli va Majnun" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
6	"Sab'ai sayyor" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
7	"Saddi Iskandariy" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
3-bob (modul). Lirik asarlari badiiyati, mavzu mundarijasi				
8	"Lison ut-tayr" dostonining boblar bo'yicha tavsifi.	amaliy	Boblarni mustaqil mutolaa etish	2
9	"Munshaot" asaridagi maktublar tasnifi.	amaliy	Maktublarni o'qish	2
10	"Muhokamat ul-lug'atayn" asarida tilshunoslik masalalari.	amaliy	Asar matnini o'qib o'rganish	2
11	"Majolis un-nafois"dagi majlislar.	2-3- amaliy	Majlislar mutolaasi	2
12	Navoiyning 10 ta g'azalini g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish	amaliy	G'azallarni mustaqil tahlil etish	2
13	"Xazoyin ul-maoniy"dagi janrlarni "Devoni Foniy"dagi janrlar bilan qiyoslash	amaliy	Ikkala manbani qiyosiy tahlil asosida o'rganish	2
14	Navoiy lirikasidagi ma'naviy san'atlarni o'rganish	amaliy	Asarlardagi ma'naviy san'atlarni aniqlash	2
15	Navoiy lirikasidagi lafziy san'atlarni o'rganish	amaliy	Asarlardagi lafziy san'atlarni o'rganish	2
16	Navoiy lirikasidagi mushtarak san'atlarni o'rganish	amaliy	Asarlardagi mushtarak san'atlarni aniqlash	2
17	"Hayrat ul-abror"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatini o'rganish	2
18	"Farhod va Shirin"dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatlarini bilish	2

19	"Layli va Majnun" dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish	amaliy	10 baytni tanlab, ritm ustida ishlash	4
20	"Sab'ayi sayyor" dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatini o'rganish	4
21	"Saddi Iskandariy" dan 10 baytning ritmik xususiyatlarini o'rganish.	amaliy	10 baytni tanlab, ritm xususiyatini yoritish	4
22	Navoyi "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti va "Devoni Foni" bilan to'liq tanishib chiqish. Hamd, na't, orifona, oshiqona, rindona mavzudagi g'azallaridan yod olish va g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish.	amaliy	"Xazoyin ul-maoniy" va "Devoni Foni" matlari ustida ishlash, g'azal yodlash mashqini bajarish	8
23	Navoyining qit'a, ruboiy, fard va muxammaslaridan namunalar yodlash va sharhlab kelish.	amaliy	Mazkur lirik janrlar ustida mustaqil va muttasil ishlash	4
Jami:				60 s.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va h.k.

6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI

1. Qadimgi turkiy moniylik adabiyotida axloqiy-tarbiyaviy masalalarning badiiy talqini.
2. Mumtoz adabiyotning shakllanishidagi asosiy omillar: mifologiya, xalq og'zaki ijodi va tarjima asarlar.
3. Mumtoz adabiyot taraqqiyotida Qur'oni karim g'oyalari va hadisi sharifdagi fikrlarning o'rni va ahamiyati.
4. Tasavvuf ta'limotining mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati.
5. An'ana va o'ziga xoslik – mumtoz adabiyotdagi eng muhim adabiy hodisa.
6. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari.


7. Lirik turga mansub janrlar va ularning o'zbek mumtoz adabiyotida tugan o'rni.
8. Devon, bayoz va tazkiralalar – mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar.

9. Epik she'riyat va unga xos muhim xususiyatlar.
10. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik va epik asarlar misolida).
11. O'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviy obrazlar genezisi va rivojlanishi tadriji.
12. Sharq adabiyoti uchun umumiy bo'lgan obrazlar tasnifi va tavsifi.
13. O'zbek mumtoz adabiyotining ramz va fimsollar olami.
14. O'zbek mumtoz adabiyotida majoz tarixi.
15. Mumtoz adabiyotda she'riy va nasriy uslub.
16. Nasriy asarlarning uslubiy xosliklari.
17. Xalq kitoblarining paydo bo'lish sabablari va adabiy jarayon.
18. Forobiyning she'r, uning hosil bo'lish qonuniyatlari va insoniyat tomonidan idrok etilishi haqidagi fikrlari.

19. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar.
20. Hmlar uchligi va ularning mumtoz poetikani o'rganishdagi ahamiyati.
21. Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari.
22. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida she'r nav'lari tasnifi.
23. G'azal va uning turlari.
24. Qasida va uning tarkibiy tuzilishi.
25. Mustazodning janr xususiyatlari.
26. Kichik lirik janrlar tavsifi.
27. Musammam janriga oid nazariy qarashlar.
28. O'zbek mumtoz adabiyotida masnaviy janrining tutgan o'rni.
29. Tarji'band janrining o'ziga xos xususiyatlari.
30. Tarkibbandning janr xususiyatlari.
31. Aruz vazni va mumtoz janrlar munosabati.
32. Tamsil va husni ta'lil san'atlarining o'ziga xos xususiyatlari.
33. Iyhom va tajnis san'atlarining o'ziga xos xususiyati.
34. "Badoe' us-sanoe'"da badiiy san'atlar tasnifi.
35. Tajnis, iyhom, tazod san'atlarining mumtoz she'riyatdagi o'rni.
36. Mumtoz qofiya: unsurlari, turlari.
37. "Bilgamish" dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati.
38. Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalar: «To'maris», «Shiroq».
39. Xalq qissalarining mumtoz adabiyot shakllanishi va taraqqiyotidagi o'rni.
40. «Devonu lug'otit turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan badiiyat namunalar.
41. Abu Ali ibn Sinoning adabiy faoliyati.
42. «Devonu lug'otit turk» asaridagi adabiy janrlar.
43. "Qutadg'u bilig" dostonida komil inson va ezgulik g'oyalarning ifodalanishi.
44. "Qutadg'u bilig" dostonida muallif ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
45. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida obrazlar tabiati.

46. "Qutadg'u bilig" dostonida rahbar ma'naviyati ta'siri.
47. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida odob-axloq, so'z va tilga, ilm-ma'rifatga munosabat masalalari.
48. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida hadislar mazmunining badiiy talqini an'anasining yangilanishi.
49. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"ida insoniy fazilatlarining ulug'lanishi.
50. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"ida nopoklik, nodonlik, dunyoparastlik kabi illatlarning qoralanishi.
51. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" matniga doir ilmiy munozaralar.
52. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"ida islom ma'rifati va axloq talqini.
53. Ajiografik asarlarning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni.
54. "Qisasi Rabg'uziy"dagi hikmatlarning badiiy-ma'rifiy ahamiyati.
55. "Qisasi Rabg'uziy" matnida she'riy parchalarning o'rni.
56. "Muhabbatnoma"ning tematik-g'oyaviy xususiyatlari.
57. "Muhabbatnoma" badiiyati.
58. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asaridagi sultonlar haqidagi hikoyatlar.
59. Sayfi Saroyining she'riy hikoyatlari va g'azallari tahlili.
60. Pahlavon Mahmud ruboiylarining axloqiy-ta'limiy hamda falsafiy mohiyati.
61. Durbekning "Yusuf va Zulayxo" dostonida Yusuf obrazi.
62. Durbekning "Yusuf va Zulayxo" dostonida Zulayxo obrazi.
63. Atoiy lirikasida hayot va sevgi mavzuning badiiy talqini.
64. Atoiyning g'azalda husni ta'lil san'atini qo'llash mahorati.
65. Sakkokiy – qasidanavis.
66. Lutfiy lirikasida yor va oshiq obrazlari.
67. Lutfiy lirikasida badiiy tasvir vositalari.
68. Lutfiy va Navoiy.
69. Lutfiy qit'alarida lafziy san'atlar.
70. Gadoiy lirikasida qofiya turlarining qo'llanilishi.
71. Boburning g'azalnavislik mahorati.
72. Bobur ruboiylarida g'urbat motivlari.
73. Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida iyhom.
74. "Boburmoma"da Movarounnahr shaharlarining badiiy tasviri.
75. "Boburmoma"ning o'zbek adabiyoti va madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati.
76. "Boburmoma"da Hindiston tabiatining badiiy tasviri.
77. Bobur lirikasida badiiy san'atlar.
78. "Boburmoma"da temuriylarga munosabatning badiiy talqini.
79. "Boburmoma"da muallif ruhiyatining badiiy tasviri.
80. Bobur lirikasida hasbi hol tasviri.
81. Muhammad Solihning "Shayboniyoma" dostonida shoir badiiy niyati va hayot haqiqati in'ikosi.
82. Xojaning hikoyanavislik mahorati.
83. Xojaning "Miftoh ul-adl" asarida ma'naviy-axloqiy masalalar talqini.

84. Xojaning "Gulzor" asarida obraz va xarakter yaratish mahorati.
85. Qul Ubaydiy she'riyatida lirik qahramon tabiati.
86. Qul Ubaydiy asarlarida dunyoqarash va tariqat masalalari.
87. Qul Ubaydiy masnaviylarida g'oyaviy mazmun va badiiy shakl mutanosibli.
88. Mashrab lirikasida ijtimoiy ohanglar.
89. Mashrab g'azallarida muallif falsafiy qarashlarining badiiy ifodasi.
90. "Qissai Mashrab" – muallif shaxsini o'rganishdagi muhim manba.
91. Mashrabshunoslikdagi ilmiy munozaralarning adabiyot tarixini o'rganishdagi o'rni.
92. Andalib dostonlarining timsollar olami.
93. So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asaridagi hikoyatlar talqini.
94. So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asarida tajnis san'atining o'rni.
95. Abulg'oz Bahodirxon "Shajarai turk" asarining o'zbek adabiyoti tarixidagi ilmiy-badiiy maqomi.
96. Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" asarida timsollar silsilasi va adib mahorati masalasi.
97. Nishotiy she'riyatining mavzu ko'lami va obrazlar olami.
98. Nishotiy she'riyatida lirik qahramon tabiati.
99. Nishotiy asarlarining falsafiy asoslari.
100. Nishotiyning «Qushlar munozarasi» asarida an'ana va yangilik.
101. Nishotiy «Husnu Dil» dostonining timsollar olami va ramziylik.
102. Maxmur hajviyotida ijtimoiy voqelikning badiiy talqini.
103. Munis – tarixnavis va tarjimon.
104. Munis lirikasining mavzu ko'lami va obrazlar olami.
105. «Munis ul-ushshoq» devonida an'ana va janrlar tarkibi.
106. Munis Xorazmiy tuyuqlarining badiiyati.
107. Ogahiy ruboiylarining badiiyati.
108. Ogahiy lirikasida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari talqini.
109. Ogahiyning peyzaj yaratish mahorati.
110. Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrida she'riy janrlarning o'rni.
111. Ogahiyning tarjimonlik mahorati.
112. Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarining o'rganilish tarixi.
113. Ogahiyning "Shohid ul-iqbol" asarini ilmiy o'rganish tadriji.
114. Huvaydo g'azallarida ma'naviy komillik mezonlarining badiiy ifodasi.
115. Uvaysiy g'azallarida ijtimoiy motivlar.
116. Gulxaniy masallarida xalq maqollarining badiiy ifodasi.
117. Gulxaniy "Zarbulmasal"ida nutqiy xarakteristika.
118. "Zarbulmasal"ning ilmiy-tanqidiy matni tavsifi.
119. Gulxaniyning «Zarbulmasal»da timsol yaratish mahorati.
120. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarida badiiy san'atlarning qo'llanish tamoyillari.
121. Amiriy – adabiy maktab asoschisi.
122. Amiriy asarlarining mavzu ko'lami va janr xususiyatlari.
123. Nodira firoqnomalari badiiyati.

"O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasini mudiri, f.f.d., professor
N.Jabborov  (imzo)

Tuzuvchilar:
O.Tojiboyeva _____ (imzo)
"O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasini dotsenti, PhD

Taqrizchilar:
B.To'xliyev TDSHU professori
K.Mullaxo'jayeva ToshDO'TAU dotsenti